

# Murojaatga munosabat



## Murojaatga munosabat

Bugun ijtimoiy tarmoqlar orqali e'lon qilingan "Suvoqovaning quvurlari yorilib, uylarimiz suvga to'lди" sarlavhali videomurojaat yuzasidan quyidagilarni ma'lum qilamiz.

Ushbu videomurojaat yuzasidan "Surxondaryo suv ta'minoti" MChJ mutasaddilari tomonidan ishchi guruh tuzilib, holat bo'yicha joyiga chiqib o'rganildi. Mazkur muammo 26 iyunъ tongida Termiz shahrining "Yulduz" mahallasi, "Ahmad Donish" ko'chasidagi suv kuzatuv qudug'ida nosozliklar tufayli sodir bo'lgan. Shu hududda yashovchi fuqarolar holat yuzasidan "Surxondaryo suv ta'minoti" MChJ Termiz shahar bo'limiga murojaat qilishgan. Ishchi guruh tomonidan o'sha kunning o'zida muammo bartaraf etilib, kuzatuv suv qudug'idagi nosozliklar bartaraf etilgan. Murojaatda keltirilgan "3-4 oydan beri shu ahvol" mazmunidagi vajlar esa o'z tasdig'ini topmadı. Sababi mazkur muammo o'sha kunning o'zida bartaraf etilgan. Bugun "Surxondaryo suv ta'minoti" MChJ mutasaddilari tomonidan tuzilgan ishchi guruh videomurojaat yo'llagan fuqaro bilan uchrashib, murojaatchi tomonidan e'tirozi yo'qligi hamda muammo bartaraf etilgandan so'ng ijtimoiy tarmoqlarga videomurojaat yo'llamasligi fuqarolarga tushuntirildi. Shuningdek, fuqarolarga bunday hodisalarni tezda bartaraf

etish uchun "Surxondaryo suv ta'minoti" MChJ ning shahar va tuman bo'limlarida mutasaddilardan iborat ishchi guruh kunu-tun mehnat qilishini eslatib o'tamiz.